

Buxoro shahrida 15-may — “Xalqaro oila kuni” shiori ostida yurish bo'yicha marafon o'tkazildi

Ushbu tadbir Buxoro viloyat hokimligi tomonidan aholi orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida tashkil etildi. Shu kuni ertalab viloyat hokimi o'rinbosarlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, korxonalar va tashkilot mutasaddilari va xodimlari, taniqli estrada xonandalari va kino aktyorlari, talabalar, umuman olganda, sog'lom turmush tarzini salomatlik asosi deb bilgan hamyurtlarimiz Labi Hovuz ansambli yonida jam bo'lishdi.



Marafonda TIQXMMI Buxoro filiali a'zolari ham filial direktori Shavkat Jaxonovich Imomov boshchiligida faol tarzda ishtirok qilishdi. Marafonning ochilish marosimida so'z olgan viloyat hokimi Botir Zaripov sog'lom turmush tarzining ahamiyati xususida so'z yuritarkan, bu kabi tadbirlarni keng qamrovda va doimiy tarzda ravishda o'tkazib turilishi zarurligini ta'kidladi. Sog'lom turmush tarzining muhim shartlaridan biri bo'lgan yurish va badantarbiya targ'ibotiga hissa qo'shish, bu borada aholi qiziqishini oshirishda barchani faollikka chorladi. Ikki ming nafarga yaqin marafon qatnashchilari Labi-hovuz ansambli oldidan Ark qo'rg'onigacha bo'lgan masofani bosib o'tishdi.



Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, inson salomatligi 55 foiz holatda sog'lom turmush tarziga, 20 foizi yashayotgan ekologik muhitiga, 15 foizi irsiy omillarga, bor yo'g'i 10 foizi tibbiyotga bog'liq ekan. Demak, sog'lom turmush tarziga muntazam ravishda amal qilish turli xastaliklardan xoli, chiroyli va baxtli yashash omilidir. Marafon haqida Buxoro viloyat hokimligi matbuot xizmati ma'lumotlari va fotosuratlaridan foydalanildi.

TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati
TIQXMMI matbuot xizmati